
Xotira. Yirik arxeolog olim, akademik Edvard Rtveladze

Ilm qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Bu ko’hna naqlda chuqur ma’no mujassam. Olim va bir paytda shogirdparvar, mehri daryo, odamohun inson bo’lib qolish mushkul. Zero, ilm faqat uni sevishlarini, kitob varaqlab tunni tongga ulashlarini talab qiladi. Akademik Edvard Rtveladze qomusiy olim bo’lish bilan bir qatorda atrofidagi katta-yu kichikni birday seva olgan, shogirdlariga mehrini ayamay ulashgan fidoyi inson edi. Ustoz bugunga qadar ilmda bir zum to’xtamadi. Tinimsiz mehnat qildi, yuzdan ortiq arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etib, qator ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, to’plamlar muallifiga aylandi. E.Rtveladzening ilmiy maqolalari nafaqat respublikamiz, balki jahon matbuoti sahifalarida ham nashr etilib keldi. Akademik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi va madaniyatining ulkan qatlamlarini o’rgandi.

Edvard Vasilevich Rtveladze 1942-yilning 14-mayida Gruziyaning Borjomi shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. 1959-yilda Kislovodsk (Rossiya) shahridagi 11-sonli o’rta maktabni tamomladi. Maktab davrlaridayoq Edvard Vasilevich qadimgi tarix va arxeologiyaga juda qiziqar, hatto 1958-1960-yillarda Kabardino-Balkariya, Stavropol o’lkasi, Budyonovsk shahri yaqinidagi Madjar shahar harobalaridagi arxeologik tadqiqot ishlarida faol ishtirok etdi. 1961-1962-yillarda akademik M.E.Masson rahbarligidagi YuTAKE (Janubiy Turkmaniston arxeologik majmua ekspeditsiyasi) tarkibida ko’hna Marv qazishmalarida va professor G.A.Pugachenkova boshchiligida qadimiy So’g’d obidalarini tadqiq etishda ishtirok etdi.



Edvard Vasilevich Rtveladze 1967-yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O’zMU) tarixchi-arxeolog mutaxassisligini tamomlab, hozirgi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida ilmiy xodim sifatida faoliyatini boshladi. 1973-yildan 1985-yilgacha O’zR FA San’atshunoslik institutining “San’at tarixi va arxitektura” bo’limida kichik, so’ngra katta ilmiy xodim lavozimlarida ishladi. 1985-yildan umrining so’nggiga qadar San’atshunoslik institutida “San’at tarixi” bo’limining boshlig’i sifatida faoliyat yuritib, arxeologiya va qadimgi san’at tarixi fan yo’nalishlari rivojiga sadoqat bilan xizmat qildi.

1975-yilda Edvard Vasilevich Rtveladze tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “XIII-XIV asrlarda Shimoliy Kavkazda shaharsozlik madaniyati” mavzusida (Leningrad), 1989-yilda esa doktorlik ilmiy darajasini olish uchun “Qadimgi Baqtriya – o’rta asr Toxarisotoni. Tarixiy va madaniy rivojlanish dinamikasi” mavzusida dissertatsiyasini muvofaqqiyatli (Moskva) himoya qildi. Edvard Vasilevich 1994-yilda professor ilmiy unvoriga ega bo’ldi. Oradan bir yil o’tib, 1995-yilda, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zosi etib saylandi.

Akademik ilmiy faoliyatini Markaziy Osiyoning qadimgi va o’rta asrlar tarixi, arxeologiyasi, numizmatikasi, epigrafikasi, san’ati, madaniyati tarixini o’rganishga bag’ishlagan. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Kipr, Yaponiya va Fransiyada olib borilgan saksondan ortiq ilmiy arxeologik ekspeditsiyalar ishtirokchisi hisoblangan Edvard Vasilevich Rtveladze shogirdlari va hamkasblari bilan ko’pgina arxeologik yodgorliklarni ochdi, topilmalarning tarixini o’rganish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olim rahbarligida 1999-yilda xalqaro “Tohariston arxeologik ekspeditsiyasi” tashkil etilib, Sharq xalqlari san’ati davlat muzeyi (Moskva), Yelets davlat universiteti, RFA Arxeologiya instituti, San’at va dizayn universiteti (Kioto, Yaponiya) olimlari bilan hamkorlikda bir qator tadqiqot ishlari olib borildi.

Ayniqsa, Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanida joylashgan Kampirtepa yodgorligi muhim manba sifatida katta ahamiyatga ega edi. Ushbu qadimgi shahar harobasi Amudaryoning o’ng sohilida, Termiz shahridan 30 km g’arbda va Sho’rob qishlog’idan 1,5 km uzoqlikda joylashgan. Kampirtepa ilk bor Edvard Vasilevich tomonidan 1972-yilda Oks (Amudaryo) vohasida arxeologik qidiruv ishlari dovomida aniqlangan. Qazishma ishlari davomida shaharning yuqori qismida statsionar tadqiqot ishlari olib borildi va uning katta hududi ochib o’rganildi.



Uzoq yillik to’plangan ma’lumotlar asosida ekspeditsiya rahbari akademik E.V.Rtveladze Kampirtepani XV asrda yashab ijod qilgan eron tarixchisi Xofiz-i Abruning asarlarida qayd etilgan, “Jayhun” (Amudaryo, o’rta asrlardagi) nomi bilan atalgan kechish yo’lini yunoncha “Pandaxeyon” bilan bog’laydi. Olimning so’ngi tadqiqotlari Kampirtepa harobalarini Oks Aleksandriyasi bilan bog’lab, uni Iskandar Makedonskiyning Sharqqa yurishi davri bilan bog’laydi.

Edvard Rtveladze Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi va madaniyatining ulkan qatlamlarini, Buyuk Ipak yo’lining eski va yangi yo’nalishlarini o’rganib chiqdi. Akademikning ilmiy biografisidan respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan 900 ga yaqin ilmiy maqolalar, 41 monografiya, ko’plab ilmiy maqolalar to’plamlari o’rni oldi. Shuningdek, qator ilmiy loyihalarga rahbarlik qildi. Uning ko’plab ilmiy asarlari ingliz, yapon, xitoy va ko’plab boshqa tillarga tarjima qilingan. Olimning ilmiy rahbarligida 14 fan doktori va fan nomzodlari, PhD lar yetishib chiqdi.

Bir necha yillar davomida Edvard Vasilevich Angliya (Britaniya muzueyi), Frantsiya (Kollej de Frants, Frantsiya ta’lim vazirligi qoshidagi ijtimoiy tadqiqotlar oliy maktabi), Shvetsiyadagi ilmiy va ta’lim muassasalarida, AQSh (Metroopoliten muzeyi, AQSh Kongressi madaniyat departamenti), Yaponiya (Nara universiteti, Tokio “Toyo Bunko” kutubxonasi), Gruziya (Gruziya Fanlar akademiyasi, Tibilisi universiteti) va boshqa mamlakatlarda o’z ma’ruzalari bilan qatnashgan.

Edvard Vasilevich Rtveladzening ilmdagi fidokorona mehnatlari davlat rahbarlari tomonidan e’tirof etilib, “Beruniy” (1985) nomidagi davlat mukofoti, 2001-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” (2001), “Mehnat shuhrati” (2003), “El-yurt hurmati” (2017) ordenlari bilan taqdirlandi. Ustoz chin ma’nodagi ilm odami edi. Bunday fazilatli kishilar esa yuz yilda bir dunyoga kelishi aniq.